

Qo'lyozma matnlarni sotsial omillarga ko'ra lingvistik ekspertiza qilishning nazariy-metodologik asoslari

Abdurahmonova Nargiza Abdurahmon qizi

A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" fakulteti 2-kurs talabasi

abdurahmonovanargiza01@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo'lyozma matnlarni tahlil qilishdagi sotsial omillar haqida ma'lumot berilgan. Qo'lyozma matnlarni lingvistik ekspertiza qilishning nazariy asoslari va huquqshunoslikdagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan. Lingvist-ekspert uchun kerakli tahlil usullari haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar. Qo'lyozma matn, lingvistik ekspertiza, ekstralingvistik, leksikografik tahlil, semantik va konseptual tahlil, semantik-sintaktik tahlil, ramka tahlil usullari, pragmatik tahlil, sotsial omillar.

Kirish. Qo'lyozma matnlar deganda qo'lda yozilgan har qanday matnlar tushuniladi. Qo'lda yozilgan matnlarni lingvistik tahlil qilinyotganda matn muallifining kasbi, 234oshi, jinsini aniqlash hozirgi kunda lingvistik ekspertizaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. O'zbekistonda bu muammo hali to'liq ochib berilmagan. Endilikda ekspertiza sohasidagi yangi izlanishlar natijasi o'laroq qo'lyozma matnlarni sotsial omillarga ko'ra lingvistik tahlil qilishning nazariy asoslarini ochib berish bo'yicha alohida izlanishlar olib borilmoqda.

Asosiy qisim. Hozirgi kunda O'zbekistonda lingvistik ekspertiza yo'nalishi rivojlana boshladi. Ilgari "tekstologik", "filologik", "stilistik", "semasiologik" ekspertizalar va hokazo nomlar qo'llanilgan bo'lsa-da, nutq faoliyati mahsulotlari bilan bog'liq turli ekspert vazifalarini hal qilishda sud amaliyotiga borgan sari ortib borayotgan ehtiyoj bu jarayonni talab qiladi. Shunday qilib, "lingvistik ekspertiza" atamasi qabul qilindi.

Lingvistik ekspertiza, E.I.Gulyashinaning fikricha, "sud nutqshunosligi" fani deb ta'kidlanadi. Bu degani sud tizimida huquqiy tilshunoslik va huquqiy til haqidagi fandır. Shunday qilib, lingvistik ekspertiza huquqiy hujjat, jinoiy matn tilini o'rganuvchi soha hisoblanadi. Sud lingvistik ekspertizasining maqsadi maxsus filologik bilimlarga asoslanib, muayyan ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlashdan iborat. Bu sohada ishlovchi ekspertlarning asosiy vazifalari jinoiy, fuqarolik yoki arbitraj jarayoni doirasidagi turli matnlarni tilshunoslik sohalari nuqtai nazaridan tahlil qilish va jinoiy ishni ochishga ko'maklashishdan iborat. Matnda mavjud bo'lgan turli darajadagi xususiyatlarni (matn, sintaktik, leksik, morfologik, morfemik, fonetik) aniqlash va baholash matnning

turli qismlari – denotativ, baholovchi, illokatsion, ekstralingvistik [I. A. Yaroshchuk 2029:8] xususiyatlarni tavsiflashga yordam beradi. Turli darajadagi matnning yuqoridagi xususiyatlarini aniqlash va baholashda quyidagi usullardan foydalanish sezilarli samara beradi. [I. A. Yaroshchuk, 2020:8]

- Eshitish idrokini tahlil qilish usuli. Bu usul ma'ruzachini ovoz va nutq orqali aniqlash muammolarini hal qilishga imkon beradi.
- Leksikografik tahlil usuli. Lug'at manbalari voqelikni ochib berishning muhim qismidir.
- Semantik va kontseptual tahlil usullari. Semantik tahlil so'zning denotativ va konotativ ma'nolarini oydinlashtirishga qaratiladi. Kontseptual tahlil bitta belgi ostida jamlangan umumiy tushunchalarni izlash sifatida namoyon bo'ladi.
- Semantik-sintaktik tahlil usuli. Bunda so'zlar, iboralar, gaplarning ma'nolarini butun bayonot kontekstida o'rnatish orqali aniqlanadi.
- Komponentlarni tahlil qilish usuli. Bu usul so'zlarning sema tarkibini aniqlash uchun til belgisi ma'nosi bilan ishlash bilan birga tahlil qilinayotgan leksemaning yashirin tushuncha qatlami mazmuni haqidagi fikrlarni kengaytirishga yordam beradi.
- Ramka tahlil usuli. Bu so'zlarning ma'nolarini tizimlashtirish, atrofdagi voqelikka oid bilimlarni izohlash usullari va vositalarini aniqlash imkonini beradi.
- Matnning strukturaviy tashkil etilishini tahlil qilish usuli. Bu nutq faoliyati mahsulining tarkibiy birliklarini, ularning chegaralarini, loyihalash usullarini aniqlash va tavsiflashga asoslanadi.
- Gaplarning bo'linishidan iborat bo'lgan matnning kommunikativ komponentini tahlil qilish usuli. Bu usul natijasida bayonning mavzu-rematik tuzilishining turi aniqlanadi.
- Presuppozitsiyalarni tahlil qilish usuli. Matnni qabul qiluvchi uchun bilimning umumiy tarkibiy qismini aniqlash usuli.
- Funktsional-stilistik tahlil usuli. Matnning turli darajalarini o'rganish orqali uning u yoki bu funksional-stilistik bog'lanishlarini aniqlash imkonini beradi.
- Pragmatik tahlil usuli. Bu gapning tasviriy vazifasini va nutq akti turini aniqlashdan iborat.
- Grammatik tahlil usuli. O'rganilayotgan matnning semantik-sintaktik tuzilishini belgilovchi gaplarda grammatik ma'noni morfologik-sintaktik darajada aniqlash imkonini beradi.

Yuqoridagi usullar sud lingvistik ekspertiza o'tkazish uchun barcha imkoniyatlarni bermaydi, albatta. Bu kabi usullar izlanishlar natijasida yana-da boyitilib borilishi mumkin.

Endi e'tiborimizni qo'lyozma matnlarga sotsial omillarning ta'sir etishiga qaratadigan bo'lsak, bunda har qanday qo'lyozma (qo'lda yozilgan) matnlarga ta'sir etishi mumkin bo'lgan sotsial omillarga kishining kasbi, ma'lumot darajasi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa shu kabi omillarni olishimiz mumkin. Shu va shu kabi omillar natijasida kishining yozma va og'zaki nutqida turli o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Yozma matnlarni tahlil qiladigan bo'lsak, sotsial omil harflarning yozilishida, turli

nutqiy elementlarda (asosan, qo'shimchalarda) o'z aksini topadi. Buni muayyan kasb yoxus ijtimoiy kelib chiqish doirasida tahlil qilinganda, sotsial omillar ta'siri natijasida muayyan lingvistik belgilarning shakllanganligi, qanday umumiyliklar hosil qilganligi e'tiborga olinadi. Bunda qo'lyozma matndagi ayrim unli va undosh harflarning yozilishida qanday umumiyliklar, o'xshashliklar bor, ular qanday lingvistik xususiyatlarga ega ekanligi, so'zlar va gap bog'lanishlarining lingvistik belgilari aniqlanadi. Mana shunday belgilarni hisobga olgan holda matn tahlil qilinishi kerak. Bu lingvistik va grafiologik tadqiqot ishlarida foydali metod bo'lib xizmat qilishi mumkin. Qo'lyozma matnlarga sotsial omillar ta'sirini aniqlash va lingvistik jihatdan tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish lozim. Biz buni shartli ravishda quyidagi tartibda keltirishimiz mumkin:

- a) Bir xil kasbga oid (bir xil ma'lumot darajasi, yoshi va hokazolarga oid) 2 ta (yoki undan ortiq) qo'lyozma matnlar olinadi;
- b) Unga ta'sir etgan sotsial omil aniqlanadi (muayyan kasb, yosh, sinf...);
- c) Matn tarkibidagi lingvistik belgilar aniqlanadi. Bunda fonetik, leksik-grammatik ifoda shakllari o'rganiladi;
- d) Unli va undosh harflarning yozilishidagi umumiyliklar aniqlanadi;
- e) So'zlar va gaplarning sintaktik-semantik bog'lanishlaridagi umumiyliklar aniqlanadi;
- f) Matnda konfliktli qismlar bo'lsa, ularning ifoda darajasi aniqlanadi;
- g) Ekspert tomonidan lingvistik asoslar keltiriladi.

Bu kabi lingvistik tahlillar yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar aniqlanishida sezilarli xizmat qiladi. Jinoiyat sodir etgan gumonlanuvchilar va jinoyatchilarning kim ekanligini kasbi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumot darajasidan kelib chiqqan holda aniqlashni osonlashtiradi. Linqvist-ekspert keltirilgan dalillar natijasida o'zining xususiy xulosasini berishi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И. А. Ярощук, Н. А. Жукова, Н. И. Долженко. ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ЭКСПЕРТИЗА : учебное пособие / - Белгород 2020 : ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 96 с.
2. Белкин Р.С. Собрание, исследование и оценка доказательств. М., 1966. С. 19.
3. A.D. To'rayeva. Shaxsiy yozishmalarda vulgar so'zlar va lingvistik ekspertiza. <http://compling.navoiy-uni.uz/>